

ABDUQAYUM YO‘LDOSH ASARLARIDA MAKON VA  
ZAMONNING BADIY AHAMIYATI

*Z. Teshaboyeva*

*O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori  
instituti 3-bosqich doktoranti*

*Annotatsiya:* Mazkur maqolada yozuvchi Abduqayum Yo‘ldosh asarlarida makon va zamonning badiiy ahamiyati haqida so‘z boradi. Xususan, badiiy asarda makon va zamon ham muhim unsurlar ekanligi va yozuvchi asarlarida qay tarzda ifodalanishi tahlil qilinadi.

*Kalit so‘zlar:* badiiy til, badiiy asar, obraz, zamon-makon munosabati, roviy-hikoyachi, adabiy makon, qissa.

Badiiy asarda makon va zamon ham muhim unsurlar hisoblanadi. Asar syujetidagi voqealar zanjirining halqalarini tashkil etuvchi voqea-hodisalar muayyan bir makon va zamonda yuz beradi. Hayot qonuniyatlari ham aynan shunday kechadi. Biz aniq bir zamon va makonda yashaymiz, hayot kechiramiz. Adabiyot qonuniyatlari ham hayotdan ulgu oladi. Zero, hayot adabiy asarlar uchun eng muhim material bo‘lib xizmat qiladi. Makon va zamon ifodalangan, yuqorida aytigan adabiy qonuniyatlarga amal qilib yozilgan asarlar, ularning syujetlari har jihatdan pishiq va mukammal bo‘ladi.

Makon va zamonning aniq ifodalanishi asoslash elementini yuzaga keltiradi. “Hayot voqealarining yoki biror kishi tomonidan qilingan har bir katta-kichik ishning sababi va oqibati bo‘lganidek, syujetda ham uning har bir ish bo‘lagi (voqea, harakat, qiliq, aytilgan fikr) shu bo‘lakni yuzaga keltirgan sabab bilan birga ko‘rsatilishi kerak”.<sup>1</sup>

“Makon” tushunchasi adabiy asar voqea-hodisalari sodir bo‘ladigan aniq makon, joy (shahar, qishloq, tog‘, qo‘rg‘on kabi); “zamon” esa asar voqealari yuz beradigan vaqtni, davrni ifodalaydi.

Rus olimi M.Baxtin XX asrning 30-yillarida makon va zamon tushunchasini ifoda etadigan “xronotop” istilohini fanga kiritdi.

U xronotopning badiiy asar negizidagi janr, kompozitsiya, syujet, badiiy matn strukturasi, obrazlar poetikasiga doir muhim qismlarni qamrab olishi, badiiy makon va zamonni uyg‘un aks ettirishini asoslab beradi.<sup>2</sup> Uning fikricha, badiiy asar, undagi har bir poetik qism xronotop tizimida o‘rganilmas ekan, muayyan asarni mustaqil badiiy hodisa sifatida talqin etish murakkablashadi. “Adabiyotda badiiy idrok etilgan zamon va makon aro uyg‘unlikni xronotop (so‘zma-so‘z tarjimada zamon-makon degan ma‘noni bildiradi), deb ataymiz. Ushbu istiloh matematika ilmidagi Eynshteynning nisbiylik nazariyasi negizida qo‘llab kelinadi.

<sup>1</sup> Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti, 1986. 191-bet

<sup>2</sup> Jo‘raqulov Uzoq. Mixail Baxtin kashfiyotlari // Jahon adabiyoti jurnadi, 2014, dekabr, 153-bet.

Istilohning biz uchun, matematikada qo‘llanadigan maxsus tushuncha sifatida, ahamiyati yo‘q. Uni biz adabiyotshunoslikka (tom ma‘noda bo‘lmasa ham) istiora o‘laroq qabul qilamiz. Muhimi, bu o‘rinda, istilohning zamon va makonni uyg‘un holatda (zamonni makonning to‘rtinchi o‘lchami sifatida) ifodalashidir”,<sup>3</sup> deydi olim xronotop tushunchasi haqida.

Har qanday badiiy asarning sodir bo‘ladigan makoni va zamoni bo‘ladi. Hujjatlar asosida yoziladigan asarlarda real makon va konkret zamon belgilanadi. Muallif tomonidan yaratiladigan subyektiv voqelikda ham makon va zamon aniq tasvirlangan bo‘lishi badiiylilikning shartlaridan biridir.

Adabiyotshunos Uzoq Jo‘raqulov zamon va makon haqida shunday nazariy qarashni ilgari suradi: “Xronotop badiiy asarning botiniy funksiyasini ta‘min etadigan, muayyan makon o‘zani bo‘ylab harakatlanuvchi zamon oqimi demakdir. Badiiy asardagi har qanday zamon yoki makon o‘z-o‘zichi hech narsani anglatmaydi, harakatlanmaydi. Qachonki inson hayoti, insonga xos so‘z-harakatlar u bilan uyg‘unlashsa, badiiy xronotop jonlanadi, asar botini bo‘ylab oqa boshlaydi”.<sup>4</sup>

Adabiy asarning makoni hayotda mavjud geografik hududlar (masalan, Qarshi, Toshkent, Nukus, Qo‘qon, Buxoro va h.z.) bo‘lishi bilan birga yozuvchining o‘zi o‘ylab topgan to‘qima joy nomlari ham bo‘lishi mumkin. Masalan, Murod Muhammad Do‘stning Galatepa adabiy makoni aynan hayotda mavjud geografik hudud emas. Dunyo adabiyotining taniqli namoyandasi Uilyam Folkner asarlaridagi barcha voqealar adibning o‘zi o‘ylab topgan Yoknapatofa xayoliy makonida, Gabriel Garsiya Markes asarlaridagi voqealar Makondo nomli xayoliy makonda bo‘lib o‘tadi. Asarda tasvirlangan voqea-hodisalar yuz berishi mumkin bo‘lgan makon nomi to‘qima bo‘lsa ham unda baribir konkret bir makon belgilari singdirib yuboriladi.

“Har bir realistik asar voqea-hodisalari aniq makon va zamonda sodir bo‘lishi – badiiy syujetning zarur shartlaridandirki, bu qonuniyatni sira yoddan chiqarmaslik kerak. Ta‘kidlash joizki, zamon va makon badiiy syujetning tarkibiy qismi yoki unsurlaridan biri emas, balki uning omili, hayotiyliigi va haqqoniyligi manbaidir. Makon va zamon syujetga o‘z muhrini bosadi, uni jonlantiradi, ta‘sirchanligini oshiradi, sermazmun qiladi”,<sup>5</sup> deb yozadi adabiyotshunos To‘xta Boboyev. Syujetni makon va zamonsiz tasavvur qilish ilojsiz.

Abduqayum Yo‘ldoshev ko‘plab hikoyalarida O‘zbekovul adabiy makoniga duch kelamiz. Xususan, “Parim bo‘lsa” hikoyasida bu nom tez-tez tilga olinadi: “Mana, ko‘rasizlar, tez orada mazkur “ijod namunalari” – bu iborani

<sup>3</sup> Baxtin M. Вопросы литературы и эстетики. -М.: Xudojestvennaya literatura, 1975, str. 234-235.

<sup>4</sup> Uzoq Jo‘raqulov. Nazariy poetika masalalari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. 137-bet

<sup>5</sup> Adabiyotshunoslik asoslari. To‘xta Boboyev. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2002. 134-135-betlar

o‘zbekovulliklar ehtirom bilan tilga olishardi – alohida kitob holda chop etiladi, adadiyam biron o‘n besh ming, yo‘q-yo‘q, ovuldagi chaqaloqlar-u qariyalarniyam hisobga olgan holda o‘ttiz mingni tashkil etadi. Bu hali boshlanishi. Ajabmas, keyingi kitob ovulimizda yashab o‘tgan va hozirda yashayotgan mashhur zotlar hamda oddiy odamlar haqida bo‘lsa...”<sup>6</sup>

Yozuvchi bu qishloqqa xos o‘ziga xoslikni, qishloq odamlarining tabiatini, fe‘l-atvorini aks ettirishga harakat qiladi. “Parim bo‘lsa” hikoyasi qahramonlari G‘aniboy va Ibodulla o‘zbekovullik odamlarning o‘ziga xos fe‘l-atvorini namoyon etadi. Bu adabiy makon muallifning o‘zi ko‘rgan, bilgan joy ekanini anglash qiyin emas.

“O‘zbekovulda sarmoyador odamni hamma taniydi. “Yangi o‘zbek” G‘aniboyning shahardan aqldan ozgandek, bo‘ynida bo‘yinbog‘ bilan qaytib kelgani haqidagi sovuq xabar qishloqqa yashin tezligida tarqaldi”.<sup>7</sup>

Mohiyatan hamma o‘zbek qishloqlarining yashash tarzi, tutumlari, odat va an‘analarida o‘xshashlik bor. Biroq ayrim nuqtalarda yaqinlikdan ko‘ra, keskin tafovutlar ham uchraydi.

“Biz o‘tgan yo‘llar” hikoyasida to‘qsoninchi yillar boshida, O‘zbekovulni junbushga keltirgan uch qop un mojarosi haqida hikoya qilinadi. Hikoyadagi asosiy obrazlardan biri Oliya momo do‘kon yonidagi o‘ziga xos sahnaga aylangan maydonchaga chiqadi va “Musulmonlar, baringning xabaring bor, kelasi oyda bir emas, ikki nevaram uylanadigan. O‘zlaring insof bilan aytinglar: ho‘kimat berayotgan to‘rt kilo un bilan to‘y o‘tkazib bo‘ladimi? Shunday ekan, o‘sha unning hech bo‘lmasa ekki qopi bizdiki bo‘lishi kerak. Gapim tuvrima?” deb o‘zbekovulliklarni savolga tutadi. Hikoyachi-roviy bu gapga e‘tirozi munosabat bildiradi: “Yoshi saksonga yaqinlashib qolgan, o‘zbekovulchasiga aytganda, “to‘ridan go‘ri yaqin” kampirga bir narsa deb e‘tiroz bildirish mushkuldek edi go‘yo”. Ochlik yillarida irodasi sinalgan bu qishloq ahli yozuvchiga begona emas degan xulosaga kelish mumkin.

Muallif ijodining dastlabki davrlarida yozgan “Tushov” hikoyasida O‘zbekovul adabiy makoni haqida kengroq va batafsilroq tasvirlarni o‘qiymiz: “Baqiroq otarchilari “quyoshli ma‘vo” deb kuylaydigan O‘zbe-kovul ulkan cho‘lning qoq kindigiga joylashgan. Ovul kattagina, o‘nta uzundan-uzun, ilonizi ko‘chasi-yu ikki yuzga yaqin xonadoni bor; har xonadonda kamida o‘n jon yashaydi”.<sup>8</sup> Adibning yozishicha, “o‘zbekovulliklarning asli kelib chiqishi ko‘chmanchi qabilalardan. Qachonlardir og‘izlaridan ko‘piklar sachragan mast nortuyalarda, uchqur arabiy duldullarda sahroni dir titratib mag‘rib-u mashriqqa

<sup>6</sup> Abduqayum Yo‘ldosh. Puankare: hikoyalar. – Toshkent: Akademnashr, 2022. 10-bet

<sup>7</sup> Abduqayum Yo‘ldosh. Puankare: hikoyalar. – Toshkent: Akademnashr, 2022. 31-bet

<sup>8</sup> Abduqayum Yo‘ldosh. Mubtalo: hikoyalar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2023. 217-bet

chopgan, olis-olislardagi qal’a-kentlargacha dahshatga solgan jangovar ulusning avlodlari yaqin to‘qqiz-o‘n muchal aylanib, o‘troq hayot kechirishga o‘tgan; endi u suronli kechmish zamonlardan uzuq-yuluq afsonalari rivoyatlar qolgan, xolos”.<sup>9</sup>

Qishloq aholisi asosan dehqonchilik bilan mashg‘ul, “faollar” tantanavor tarzda “oq oltin” deb ataydigan paxta yetishtiradi; ovul qaramog‘idagi o‘tloqlar qo‘riq yer sifatida chorak asr burunoq o‘zlashtirilib yuborilgani uchunmi, dahmazasi mo‘l chorva yo‘q hisobida. “Za‘faron sahro bag‘rini kumush tasmaday tilib o‘tgan ikki jilg‘aning suvi ovulga kiraverishdagi qo‘sh omborga to‘planadi-da, yoz bo‘yi dalalarga oqiziladi; goh-goh, seryog‘in kelgan erta ko‘klam chog‘lari, bir-ikki quloch suv ovulning g‘arbiy sarhadida joylashgan, yildan yilga pasayib borayotgan hovuzga yetib qoladi”.<sup>10</sup>

Abduqayum Yo‘ldoshev qissalarining makoni va zamoni ijodkorning o‘zi ko‘rgan, yashagan davr va ijtimoiy muhit bilan bog‘liq. Biroq ko‘pincha muallif badiiy to‘qimasining mahsuli, real hayot bilan subyektivlashgan badiiy borliqning uyg‘unligi o‘laroq ko‘rinadi. Zero, “ijodkor asarida tasvirlaydigan makon va zamoni konkret voqelikdan, ya’ni o‘zi tug‘ilib o‘sgan qishlog‘i (makon) va bolalikdan (zamon) olishi mutlaqo tabiiy holdir. Adabiyotshunos Islom Yoqubov ijodiy fenomenning makon va zamon bilan munosabati haqida o‘rinli fikr bildirgan: “Yozuvchi, shoir, dramaturg zarur axborotlarni zamon va makon shakllari yordamida qabul qiladi. Biroq ijodiy fenomen imkonlari muayyan obyektiv vaqt birligi bilangina chegaralanmaydi. Illo, badiiy adabiyot adabiy qahramon yoxud lirik menning alahlash, bosinqirash, yo‘q narsalarni ko‘rish va eshitish (gallyutsinatsiya), yanglishish, adashish va sahv-xatolari (illyuziya), nimagadir ortiqcha mahliyo bo‘lish jihatlari (atraksiya), oldindan yaqqol ko‘rish, g‘oyibdan aniq xabar olish hollari (yasnovideniye) kabilarni ifodalashga imkon beradi”<sup>11</sup> Bundan xulosa qilish mumkinki, har qanday asardan ham reallik yoki konkret makonning belgilarini, qolaversa avtobiografik xususiyatlarni qidiraverish maqbul emas.

Abduqayum Yo‘ldoshev ijodida “shahar” va “qishloq” makoni aralash holda keladi. Bu borada ikki xil holat kuzatiladi:

- Qissalar deyarli bitta adabiy makonda kechadi;
- Hikoyalarda “shahar” va “qishloq” makonlari aralash holda keladi.

Yozuvchining qahramonlari, odatda, qishloqdagi olis bolaligini yodga olishadi. Ayni hikoya qilinayotgan vaqtdagi voqelik “shahar” adabiy makonida kechsa, xotiralar bevosita “qishloq” makonida kechadi. Bunda adib “retrospektiv hikoya qilish” usulidan foydalanadi. Asarning umumiy g‘oyasi, muallif badiiy niyati bu ikki makonni tutashtiradi. “So‘zning obrazga aylanishida material estetika

<sup>9</sup> Abduqayum Yo‘ldosh. Muhtalo: hikoyalar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2023. 217-bet

<sup>10</sup> Abduqayum Yo‘ldosh. Muhtalo: hikoyalar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2023. 217-bet

<sup>11</sup> Islomjon Yoqubov. Badiiy matn va estetik talqin. – T.: “Fan va texnologiya”, 2013. 122-bet

obyekti bo‘lgan so‘z sof estetika obyektiga aylanishi lozim”.<sup>12</sup> Shunday ekan avtobiografik xarakterga ega yoki muallifning hayotida uchragan voqea-xotiralar sof estetika obyektiga aylanishi nozim. Bunda muallif yaratgan subyektiv voqelik barcha kompozitsion xususiyatlarni o‘zaro muvofqlikda jamlashi talab etiladi.

“Timsohning ko‘z yoshlari”, “Sunbulaning ilk shanbasi”, “Otchopar yoxud o‘n uchinchi uy”, “Yulduzning yo‘li”, “V.B. va boshqalar” qissalari asosan “shahar” adabiy makonida kechadi. Bu qissalarning voqealari muallifning ishoralari va asarlardagi ba‘zi ishoralarga ko‘ra shu kunlarda kechadi. Adabiy zamoni yanada konkretlashtiradigan bo‘lsak, “Timsohning ko‘z yoshlari”, “Sunbulaning ilk shanbasi”, “Otchopar yoxud o‘n uchinchi uy” qissalari o‘tgan asrning 90-yillari oxirida kechadi. “Yulduzning yo‘li”, “V.B. va boshqalar” qissalarining adabiy zamoni esa ikkinchi ming yillikning o‘ninchi yillariga to‘g‘ri keladi. Ushbu qissalardagi badiiy detallarga diqqat qaratadigan bo‘lsak, asarlarning adabiy makoni Toshkent shahri ekanini ilg‘ab olish mumkin.

“Otchopar” qissasining boshlanishidayoq adabiy makon tasvirini ko‘rishimiz mumkin: “Shaharning g‘arbiy qismini egallab yotgan N. tumanida joylashgan bu to‘qqiz qavatli beton uy yon-atrofida o‘ziga o‘xshab qo‘qqayib turgan uylardan aslo farq qilmasdi...”<sup>13</sup> Noma‘lum N. tumani taxminan Abu Saxiy va Bek Baraka bozorlariga yaqin joylar ekani asar davomida sezilib turadi.

Yoki “Sunbulaning ilk shanbasi” qissasidan o‘rin olgan quyidagi parchada Toshkentdagi aniq bir makon – Navoiy nomli teatr binosi tasviri berilgan: “Mana, Navoiy nomli teatr binosi savlat to‘kib turibdi. Mana, ko‘kka shodon sakrayotgan favvora. Hamxonam aytgan joyni tezda topdim. Agar “Toshkent” mehmonxonasiga qarab turilsa, favvoradan o‘ng tarafda, yerto‘laga tushiladigan zina o‘rab qo‘yilgan panjara yonidagi oddiy ustun; darhaqiqat, kumush tusda. Tepasida hoynahoy, o‘rnatilganidan buyon yonmay kelayotgan lampochkasimon chirog‘iyam bor”.<sup>14</sup> Bu yerda “Toshkent” mehmonxonasi va hozirgi Alisher Navoiy nomidagi akademik Katta teatrining yon-veridagi joylar tasvirini ko‘rishimiz mumkin.

“To‘y” qissasida shahar adabiy makoniga aloqador “konsert zali”, “institut”, “yotoqxona”, “to‘yxona” kabi o‘rin-joylarni uchratishimiz mumkin? “Bu kichikroq konsert zalida Navro‘z bayramiga bag‘ishlab yosh xonandalar ishtirokida o‘tkaziladigan konsert chiptasi edi. Qiz yotoqxona eshigiga yopishtirib qo‘yilgan konsert afishasini ko‘rganini eslab qoldi”. Qissalarda “peyzaj”lar, ya‘ni tabiat, o‘rin-joy tasvirlariga kamdan-kam hollarda duch kelamiz. Muallif asosan voqelik zanjiri va roviy-hikoyachining ruhiy kechinmalari tasviriga ko‘proq diqqat qaratadi.

<sup>12</sup> B.Sarimsoqov. Badiiylik asoslari va mezonlari: risola / To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi: H. Axmedov. – Toshkent: Bookmany print, 2022, 33-bet.

<sup>13</sup> Abduqayum Yo‘ldosh. Timsohning ko‘z yoshlari. Qissalar. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2003. 90-bet

<sup>14</sup> Abduqayum Yo‘ldosh. Sunbulaning ilk shanbasi. Toshkent: “Yozuvchi” nashriyoti, 1998. 18-bet

“Begona shaharning namozshomlari” qissasi umumiy muqoyasa qilganda, “shahar” adabiy makonida kechadi. Asarning nomida ham shunga ishora mavjudligini qayd etib o‘tish joiz. Biroq orada “qishloq” makoni bilan bog‘liq voqealar zanjiri uchraydi. Voqealar aynan bitta shaharda emas, qayerligi noma‘lum va tafsilotlari ochiqlanmagan ikkita shaharda kechadi.

Ikki xil shahar ziddiyati asarning butun ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatgan: “Tezroq, tezroq chiqib ketish kerak bu begona shahardan. Men qo‘rqaman. Begona shaharning namozshomlaridan qo‘rqaman. Men namozshom palla begona shahardan ko‘ra yaydoq cho‘lda, qashqirlar orasida qolib ketishni avlo bilaman. Tezlikni tobora oshira bordim. Yo‘l esa sira unay demasdi. Nihoyat, olisda Otchopar chiroqlari ko‘rina boshlagan mahal sal yengil nafas olganday bo‘ldim. Har qalay, undan u yog‘i kenglik, inchunin, namozshom meni o‘z zabtiga ololmaydi”.<sup>15</sup> Otchopar makoni ko‘p bor tilga olinadi. Ikki shahar ziddiyati ham tez-tez takrorlanadi: roviyning Otchopari bor o‘z shahri va namozshomlari qo‘rqinchli begona shahar. Qahramon begona shaharning namozshomlari qo‘rqinchli begona shahardan yiroqlashib, o‘ziga tanish shaharga intilaveradi: “Nazarimda, Otchoparga sira yaqinlashmayotganday edim. Yana gazni bosdim. Nogoh ko‘z oldimda Najmiddin akaning menga hayratlanib qarab turgan siyrati namoyon bo‘ldi. Bechora, shubhalanmagan ham ekan-da. Yo shunchalik go‘lmidi? Maylida-ey, go‘l bo‘lsa o‘ziga ziyon. Ha, aka Najmiddin, biz hali siz bilan ko‘p ko‘rishamiz. Ukangiz omon ekan, bizning yo‘llarimiz kesishaveradi”.<sup>16</sup>

Mazkur qissaning voqealari “o‘tgan asrning 90 yillari o‘rtalarida” bo‘lib o‘tadi. Ya’ni adabiy zamon 90 yillar o‘rtalari, muallifning o‘zi qayd etganidek, “bozor iqtisodiyotiga endi o‘tila boshlangan davr”. Orada 80 yillarning oxirlarida yuz beradigan xotira lavhalari ham mavjud: “Sakson to‘qqizinchi yilning kuzi edi. ekani aytiladi. Jamiyatda “qayta qurish” jarayoni avj olgan. Hammayokda oshkoralik, “fosh” qilishlar. Odamlar romanlarni emas, partiya syezdining stenogrammalarini talashib o‘qiyotgan paytlar”.<sup>17</sup> Shundan xulosa qilish mumkinki, “Begona shaharning namozshomlari” qissasining adabiy zamoni orqali qayta qurish yillari va mustaqillikdan keyingi dastlabki yillardagi jamiyat manzaralarini muqoyasa qilish mumkin.

“To‘y”, “Osmon og‘ushi” qissalarining voqealari asosan “qishloq” adabiy makonida kechadi. Har ikkala qissaning adabiy zamoni esa taxminan “ikkinchi ming yillikning o‘ninchi yillari atrofida” to‘g‘ri keladi. “To‘y” qissasida qishloq manzaralari, ayniqsa, to‘y bo‘layotgan hovli, ya’ni to‘yxona juda jonli va ishonarli tarzda tasvirlangan: “Namozshom mahali. Tomi qizil shiferli, atrofi paxsa devor

<sup>16</sup> Abduqayum Yo‘ldosh. Puankare: hikoyalar, qissa, suhbat. – Toshkent: “Akademnashr”, 2019. 265-bet

<sup>17</sup> Abduqayum Yo‘ldosh. Puankare: hikoyalar, qissa, suhbat. – Toshkent: “Akademnashr”, 2019. 160-bet

bilan o‘ralgan uy hovlisida odam gavjum. Ertaga to‘y! Bugun esa kelin tarafda “qiz majlisi”. O‘rtacha kattalikdagi, ikkita chorpoya qo‘yilgan hovlida o‘ndan ortiq kishi yelib-yugurib xizmat qilayapti. To‘y raisi – 65-70 yoshlardagi mahalla oqsoqoli Xalil aka mezbonlarga ham, xizmatdagi yosh-yalang, qiz-juvonlarga ham ko‘rsatma berib charchamaydi. Azim ham oyog‘i olti, qo‘li yetti bo‘lib chopib yuribdi. Besh-oltita yigit hovli darvozasi yonida turgan telejkadan temir oyoqli stol va o‘rindiqlarni tashiyapti”. Asarni o‘qiyotgan kitobxon voqelikning adabiy makonini yaxshi tasavvur qila oladi. Shu jihatdan qissaning ruhiyati xalqchil, qishloq odamlarining xarakteri yaxshi ochib berilgan, manzaralar jonli tasvirlangan.

“Osmon og‘ushi” qissasida Ajinako‘prik tasviri mavjud. Muallif bu joyning tasvirini berish bilan birga uning paydo bo‘lish tarixi haqida ham hikoya qiladi: “Bir zamonlar, aniqrog‘i bundan yarim asrcha muqaddam hashar yo‘li bilan tog‘ yonbag‘ridagi keng va chuqur jarlik ustiga yog‘och-taxtalardan omonat osma ko‘prik qurilgan. Vaqt o‘tishi bilan yog‘ochlari chirib, arqonlari quruqshabmo‘rtlasha boshlagan ko‘prik har Yilboshida oqsoqollar rahbarligida amal-taqal ta‘mirlab qo‘yilardi. Biroq o‘n besh yilcha bo‘lib qoldi, besh-olti chaqirim pastga zamonaviy temirbeton ko‘prik qurildiyu, bunisiga ehtiyoj qolmadi”. Tubsiz jar ustida lopillab qolgan, taxta-yog‘ochlarini o‘t-o‘simlik bosgan, shamol esgan mahallari ojizona g‘iyqillab qo‘yadigan ko‘prik kattalarga bolalarni qo‘rqitish vositasi bo‘lib qolganini, ular bolalariga qarab “U tomonga borma, ajinalar bor... Ajina yig‘lab chaqiradi-da, keyin seni aldab olib ketib qoladi...” va hokazo qo‘rqinchli gaplarni aytishganini, alaloqibat unut ko‘prik shu vahimali gapso‘zlarga mutanosib tarzda “Ajinako‘prik” deb atala boshlanganini hikoya qiladi.

Adibning hikoyalarida ko‘proq “shahar” va “qishloq” adabiy makoni aralashib ketadi. Muallif hikoyalarida “retrospektiv hikoya qilish” usulidan ko‘proq foydalangani uchun ham badiiy asarning makoni va zamoni shahardan qishloqqa, bolalik yillaridan bugungi kunga ko‘chib yuradi.

Abduqayum Yo‘ldoshev qissa va hikoyalarida, Murod Muhammad Do‘stning Galatepasi, Nazar Eshonqulning Tersotasi kabi O‘zbekovul adabiy makoni asardan asarga ko‘chib yuradi. Yozuvchi asarlarini ma‘lum umumiy zanjirga birlashtirilsa, barcha asar syujetlari bitta yaxlit O‘zbekovul voqealar maydonining turli tarmoqlari bo‘lib ko‘rinadi.

Xulosa qilib aytganda, Abduqayum Yo‘ldoshev qissalarining makoni va zamoni ijodkorning o‘zi ko‘rgan, yashagan davr va ijtimoiy muhit bilan bog‘liq. Biroq ko‘pincha muallif badiiy to‘qimasining mahsuli, real hayot bilan subyektivlashgan badiiy borliqning uyg‘unligi o‘laroq ko‘rinadi. Zero, ijodkor asarida tasvirlaydigan makon va zamoni konkret voqelikdan, ya‘ni o‘zi tug‘ilib o‘sgan qishlog‘i (makon) va bolalikdan (zamon) olishi mutlaqo tabiiy holdir.

Yozuvchining aksar hikoya va qissalarini O‘zbekovul adabiy makoni birlashtirib turadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti, 1986. 191-bet
2. Jo‘raqulov U. Baxtin M. kashfiyotlari // Jahon adabiyoti jurnadi, 2014, dekabr, 153-bet.
3. Baxtin M. Вопросы литературы и эстетики.-М.:Художественная литература, 1975, str. 234-235.
4. Jo‘raqulov U. Nazariy poetika masalalari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. 137-bet
5. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. . – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2002. 134-135-betlar
6. Yoqubov I. Badiiy matn va estetik talqin. – T.: “Fan va texnologiya”, 2013. 122-bet
7. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari: risola / To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi: Axmedov H. – Toshkent: Bookmany print, 2022, 33-bet.
8. Abduqayum Yo‘ldosh. Puankare: hikoyalar. – Toshkent: Akademnashr, 2022. 10-265-betlar
9. Abduqayum Yo‘ldosh. Timsohning ko‘z yoshlari. Qissalar. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2003. 90-bet
10. Abduqayum Yo‘ldosh. Sunbulaning ilk shanbasi. Toshkent: “Yozuvchi” nashriyoti, 1998. 18-bet
11. Abduqayum Yo‘ldosh. Mubtalo: hikoyalar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2023. 217-bet